

## AGRAR ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

*Mamatqulov Xayrulla Abdukaxxorovich*  
*“O`zagrolizing” AJ Sirdaryo viloyat filiali direktori*

Zamonaviy agrar iqtisodiyot mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim o`rin tutsada, uning rivojlanish holatini bugungi kun talablari darajasida deya olmaymiz. Mustaqillikning dastlabki yillarida O`zbekiston qishloq xo`jaligining iqtisodiy krizisga yuz tutganligini bir qator sabablari mavjud va ulardan ayrimlarini sanab o`tamiz:• ko`p yillar davomida yerga nisbatan davlat mulki munosabatlari hukmronlik qilgani va kishilarda eski psixologiyaning hukmronlik qilishi iqtisodiy islohatlarni amalga oshishiga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda;• qishloq xo`jalik ishlab chiqarishiga fan-texnika yutuqlarini qo`llash va uni amalga oshirishning qiyinlashib qolganligi;• qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida keragidan ortiqcha mehnat resurslarining yig`ilib qolganligi, ularni bo`shatish va boshqa ish bilan ta`minlash hukumat oldiga yana bir ulkan muammoni qo`yadi;• qishloq xo`jaligi texnikalarining eskiligi va tarmoqda mexanizatsiyalashtirish darajasining pasayib ketganligi, yangi texnika sotib olish va ishlab chiqarishga jalb qilish qimmatligi va ishlab chiqaruvchilarda buning uchun kerakli mablag`ning yo`qligi;• qishloq xo`jaligi korxonalarini rivojlantirish uchun kerakli miqdordagi ssuda va kreditlarning yetishmasligi yoki ularni olishning haddan tashqari qiyinligi. Agrar siyosatning asosiy vazifasi bu kabi muammolarga imkon qadar tezroq barham berish va iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilishiga erishishdir. Shu maqsadda keyingi yillarda mamlakat agrar tarmog`ini rivojlantirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Ular ichida eng muhimlaridan biri mamlakat agrar siyosatining huquqiy asoslari yaratildi. O`zbekiston agrar siyosatining huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:- Yer Kodeksi; - Mehnat Kodeksi; - Qishloq xo`jalik kooperativlari (shirkat xo`jaligi) to`g`risidagi qonun; - Fermer xo`jaliklari to`g`risidagi qonun; - Dehqon xo`jaliklari to`g`risidagi qonun; - Qishloq xo`jaligini rivojlantirish, undagi ishlab chiqarish, moliya, soliq, kredit va boshqa munosabatlarni takomillashtirish borasidagi qonunlar, farmonlar, qarorlar, me`yoriy hujjatlar va boshqa qonunosti hujjatlar.

Agrar tarkib - qishloq xo`jaligini tashkil qilishga tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ta`sirlarning natijasidir. Agrar tarkibga asosan quyidagilar kiritiladi:

- ishlatiladigan omillarning tarkibi, sifat tarkibi va taqsimlanishi;
- tarmoqlarining ishlab chiqarish tarkibi;
- agrar sohadagi xo`jaliklar tarkibi va taqsimotining soni;
- qishloq xo`jaligi mahsulotlarining sotish sohasining tarkibi.

Agrar tarkib siyosatining maqsadi mavjud sharoit va ishlab chiqarish darajasiga qarab belgilanadi. O'zbekistonda agrar tarkib siyosatining asosiy maqsadlari aholiga kerakli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash; sanoati uchun xom-ashyo etkazib berishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash; iste'mol bozorlarini barqarorlashtirish; qishloq aholisining ijtimoiy muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish imkoniyatlarini shakllantirish; agrar tarmoq samaradorligini ta'minlash va uni asta-sekinlik bilan mamlakat iqtisodiyotining barqaror bo'lishidagi hissasini oshirishga qaratilgan. Fermer xo'jaliklari o'z mehnati va yollanma mehnatga asoslangan, bankda hisob-kitob schyotiga ega bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi mustaqil xo'jalik yuritish shaklidir. Fermer xo'jaliklari mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarimizdanoq faoliyat yurita boshlagandi. Uning dastlabki ko'rinishlari ikki xil, ya'ni, mustaqil fermer xo'jaliklari shaklida, hamda, xo'jaliklar ichidagi o'z hisob-kitob schyotiga ega bo'lmagan kichik fermer xo'jaliklari shaklida faoliyat yurita boshladi. 1998 yildagi maxsus qonun qabul qilingach fermer xo'jaliklari faqat mustaqil xo'jalik yuritish shakli sifatida faoliyat yurita boshladi.

Fermer xo'jaliklarining hajmi ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. 2002 yildan boshlab esa asta-sekinlik bilan fermer xo'jaliklarini imkon qadar yiriklashtirish siyosatini amalga oshirish boshlandi. Fermer xo'jaliklari olimlar va mutaxassislarning fikricha, kelajakda O'zbekiston qishloq xo'jaligida eng ustun darajada faoliyat yuritadigan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil qilish mexanizmidir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ham, amal qilayotgan xo'jalik yuritish shakllari mohiyatidan ham, xo'jalik yoritish shakllari bo'yicha samaradorlikni tahlil qilish natijasidan ham kelib chiqqan holda yuqoridagi fikrga qo'shilish mumkin; Dehqon xo'jaliklari - ishlab chiqaruvchining o'zining va oilasining shaxsiy mehnatiga asoslangan, bankda hisob-kitob schyotiga ega bo'lgan yoki bo'lmagan mustaqil xo'jalik yuritish shaklidir. Dehqon xo'jaliklari o'ziga ajratilgan er maydonlariga asosan o'z iste'moli uchun, ortiqchasini bozorga sotish uchun qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaradi. Dehqon xo'jaliklari o'z mohiyati jihatidan shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga juda o'xshaydi. Ammo dehqon xo'jaliklarining farqi shundaki, uni yuritmoqchi bo'lgan shaxs, alohida yangi yer maydonlariga ega bo'ladi, umumiy asoslardagi soliq to'laydi, agar xohlasa bankda hisob-kitob schyotini ochib yuridik shaxs maqomini olib faoliyat yuritishi mumkin. Dehqon xo'jaliklarining tashkil qilinishi mamlakat miqyosida quyidagi muammolarni hal qilishga ancha yordam beradi: - ortiqcha ish kuchlarini qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishga yo'naltiradi; - qishloq aholisini ijtimoiy himoya qilishga ko'maklashadi, ya'ni oila daromadini oshiradi; - qishloq aholisi, shu bilan birga mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini

qondirishga hissa qo'shadi. Agrar siyosatning muhim vazifalaridan biri qishloq xo'jaligida amal qilayotgan xo'jalik yuritish shakllaridan eng maqbullarini tanlash va doimiy ravishda takomillashtirib borishga ko'maklashishdir. Chunki hayotda hamma narsaning mukammali bo'lmaganidek, malum vaqtda har bir xo'jalik yuritish shakli ham o'z kamchiliklarini namoyon qilib qo'yadi. Samarali agrar siyosat uni o'z vaqtida payqay olishi va kerakli tadbirlarni ishlab chiqib amalga oshira olishi lozim. Shundagina qishloq xo'jaligi ham, mamlakat iqtisodiyoti ham bir butunholda samarali rivojlanadi, iqtisodiyot barqaror va mustahkam bo'ladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi - (darslik)- T.: TDIU, 2004. - 304 bet.
2. Iqtisodiyotning agrar sektori. T.Jo'raev, Sh. Allayarov, X.Asatullaev, T. Umarov, Ma'ruzalar matni. -T.: TIM, 2012
3. Salomov T. Hamdamov Q.S. Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakomov R.X., O'roqov N.I., Aripov I.M., Jahon qishloq xo'jaligi. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004. - 128 b.
4. Hakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti, -T.: MCHJ "RAM-S", - 2007. 367 b.
5. Hakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M., Agrosanoat majmui iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004. - 160 b.